



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 05 | pp. 246-251 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI



Shagazatov Oybek Baxodirovich

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

"InterForum" DUK direktor o'rinbosari

Annotatsiya: O'zbekistonning strategik joylashuvi va boy tabiiy resurslari uni xalqaro investorlar uchun jozibador qiladi. So'nggi yillarda iqtisodiy liberalizatsiya va shaffoflikni oshirishga qarshi kurashishga qaratilgan islohotlar xorijiy investitsiya oqimini sezilarli darajada oshirgan. Ushbu maqola O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) hozirgi holati va tendentsiyalarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada mamlakatning investitsion muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlarga e'tibor qaratilgan. Maqolada O'zbekistonning global investitsiya uchun jozibadorligini yanada oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy islohotlar, investitsion muhit, xalqaro investorlar, iqtisodiy liberalizatsiya.

Аннотация: Стратегическое расположение Узбекистана и его богатые природные ресурсы делают его привлекательным для международных инвесторов. В последние годы реформы, направленные на экономическую либерализацию и повышение прозрачности, значительно увеличили приток иностранных инвестиций. Эта статья рассматривает текущее состояние и тенденции прямых иностранных инвестиций в Узбекистане. Также в статье уделяется внимание широкомасштабным экономическим реформам, направленным на улучшение инвестиционной среды страны. Разработаны рекомендации по дальнейшему повышению привлекательности Узбекистана для глобальных инвестиций.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, экономические реформы, инвестиционная среда, международные инвесторы, экономическая либерализация.

Abstract: Uzbekistan's strategic location and rich natural resources make it attractive to international investors. Recent reforms aimed at economic liberalization and increasing transparency have significantly boosted the inflow of foreign investment. This article examines the current state and trends of direct foreign investments in Uzbekistan. It also focuses on extensive economic reforms aimed at improving the country's investment environment. Recommendations have been developed to further enhance Uzbekistan's attractiveness for global investments.

Keywords: direct foreign investment, economic reforms, investment environment, international investors, economic liberalization.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakat hukumati iqtisodiyotni global bozorga integratsiyalash, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Bu islohotlar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida muhim rol o'ynadi. O'zbekistonning investitsion muhitini yaxshilashga qaratilgan ushbu o'zgarishlar xorijiy investorlarga ko'proq ishonch va qulay sharoitlar yaratib bermoqda.

2017 yildan boshlab iqtisodiy liberalizatsiya siyosati tufayli, O'zbekiston xalqaro hamkorlik va savdo aloqalarini kengaytirdi, valyuta almashinuvi tartiblarini soddalashtirdi va chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qator soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etdi. Bu islohotlar, shuningdek, mamlakatda investitsion klimatni yaxshilash va xorijiy investorlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam berdi.

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy holatini va kelgusidagi tendensiyalarini ko'rib chiqish, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) bugungi kunning global iqtisodiyotida muhim rol o'ynamoqda. TTXIning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri turli nazariy yo'nalishlar va modellarda o'rganilgan. Nazariy jihatdan, TTXI iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u mahalliy iqtisodiyotga yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xorijiy kapitalni olib kiradi (Popa, 2020). Shuningdek, TTXI resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va ichki bozorning raqobatbardoshligini oshiradi (Dumiter & Todor, 2014).

Yangi iqtisodiy o'sish nazariyasi doirasida TTXIning o'sish jarayonidagi roli rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turli savdo siyosatlari bilan o'rganilgan. Balasubramaniam (1996) tadqiqotida TTXIning iqtisodiy o'sishga ta'siri, ayniqsa, tashqi savdo siyosatiga ko'proq mos keladigan mamlakatlarda kuchliroq bo'lishi aniqlangan (Balasubramanyam et al., 1996). Bu esa tashqi savdoni targ'ib qiluvchi siyosatlarning muhimligini tasdiqlaydi.

Xorijiy investitsiyalardan kelib chiqadigan induksiya qilingan ta'sirlar bir necha manbalardan kelib chiqishi mumkin. Gerg va Grinevey (2003) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda rivojlanayotgan, rivojlangan va o'tish iqtisodiyotlarida mahsuldorlik, ish haqi va eksport bo'yicha empirik dalillar baholangan. Ular TTXIdan kelib chiqadigan ijobiy ta'sirlarning empirik qo'llab-quvvatlanishiga ishonchli dalillar mavjud emasligini aniqladilar (Görg & Greenaway, 2003).

Shuningdek, Vetnamda o'tkazilgan tadqiqotda TTXIning mintaqaviy va global qiymat zanjirlariga integratsiyalanishi ko'rsatilgan. Vetnam hukumatining xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati ularning iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan (Mirza & Giroud, 2004).

Empirik tadqiqotlar natijalari ham TTXIning iqtisodiy rivojlanishga ta'siriga oid turli xil xulosalarni keltirib chiqargan. Indoneziyada o'tkazilgan tadqiqotlarda TTXI va iqtisodiy o'sish o'rtasida ikki tomonlama sababli munosabat mavjudligi aniqlangan, ya'ni xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishga olib kelishi va aksincha (Runtunuwu, 2020).

Boshqa tadqiqotlarda esa, masalan, Taylandda, TTXning uzoq muddatli ijobiy ta'siri borligi ko'rsatilgan (Chong & Chin, 2022).

Boshqa tadqiqotlarda TTXning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi va investitsiya sifatidan ham bog'liq ekanligi aniqlangan (Petkova, 2012). Litvada o'tkazilgan tadqiqotda TTXning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri mintaqa bo'yicha turlicha ekanligi ko'rsatilgan (Pekarskienė, 2013).

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirishga xalqaro va xorijlik ekspertlar hamda mutaxassislarning ijobiy munosabatlari va bergan baholari, davlatimizning iqtisodiy islohotlarni to'g'ri yo'lda va samarali amalga oshirayotganligidan dalolat beradi. Bu ijobiy munosabatlar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sohasida sezilarli natijalarni ko'rsatmoqda.

1-jadval

Iqtisodiyotga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, million AQSh dollari hisobida

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2020 yilga nisbatan o'sishi	
					(+,-)	%
Asosiy kapitalga investitsiyalar	210195,4	244963,3	266654,4	289876,8	79681,4	137,9
<i>shu jumladan:</i>						
Markazlashgan investitsiyalar:	49876,2	54675,1	57123,2	61987,1	12110,9	124,3
byudjet mablag'lari	14897,1	18765,1	19321,1	19843,1	4946,0	133,2
Davlat maqsadli jamg'armalari	x	x	x	x	x	x
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	x	x	x	x	x	x
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	26,1	54,2	61,1	67,9	41,8	260,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1234,1	1967,1	2156,1	2314,8	1080,7	187,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	6734,1	8287,1	8402,2	8675,9	1941,8	128,8
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	25437,1	32456,1	36761,3	39876,9	14331,9	156,8
Markazlashmagan investitsiyalar:	160319,2	190288,2	209531,2	227889,7	67570,5	142,1
korxonalar mablag'i	43231,0	45342,3	46767,6	47878,6	46476,0	110,8
aholi mablag'i	14567,2	18092,1	19786,2	21123,8	6556,6	145,0

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	52432,1	59875,3	64985,1	69217,2	16785,1	132,0
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	22134,0	27890,0	31879,0	34234,0	12100,0	154,7

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2020 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 210195,4 million AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 289876,8 million AQSh dollarini tashkil yetgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning hajmi 1,37 barobarga oshganligidan dalolat beradi. O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlariga jalb yetilgan investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 2020 yilda 74566,1 million AQSh dollarini tashkil yetgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 103451,2 million AQSh dollariga yetgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda 2020 yildagiga nisbatan 1,39 barobarga oshgan. Investitsiya faoliyatida loyihaviy moliyalashtirish – investitsiya loyihalarini kreditlashning bir turi bo'lib, kreditor loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarni qisman yoki to'liq o'z zimmasiga oladi.

Bank kredit operatsiyalarida asosan qarzdorning kredit layoqatini, uning moliyaviy va iqtisodiy holatini hamda garov sifatida taqdim yetiladigan mol-mulki baholashga alohida e'tibor beriladi. Biroq, loyihaviy moliyalashtirishda diqqat markazi loyihaviy tahlilga qaratiladi. Bu tahlilning asosiy ob'ekti loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi bo'lib, u loyihaning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini, xarajatlarini aniqlovchi, moliyalashtirish manbalari va risklarni baholovchi hujjat hisoblanadi. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat: birinchidan, cheklangan resurslardan samarali foydalanish orqali investitsiyalarning dinamikasini ta'minlash; ikkinchidan, pul mablag'lari tarkibi va soliq imtiyozlaridan unumli foydalanish orqali risk va xarajatlarni kamaytirish. Bu jarayonning samarali ishlashini ta'minlash uchun davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirish va amalga oshirish uchun qulay tizim tashkil yetilishi zarur.

Xalqaro tajribada venchurli biznesda dastlabki bosqichlardan oq yuqori tavakkalchilik xatari mavjud bo'lib, investitsiyalashtirilgan jarayonlarning yakuniy natijalari amalga oshirilgandan keyin ijobiy samaraga yerishilmasa moliyalashtirilgan mablag'dan ajralib qolish mumkin. Biznesning bu turiga ilm-fan sohasidagi ilmiy-tadqiqot natijalarini moliyalashtirish ko'proq mos keladi.

2-jadval

Respublikamizda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari

No	Yirik investitsiya loyihalari ishga tushirilgan vaqti	Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari soni	Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari hajmi, AQSh doll.
1.	2015 yil	158 ta	7,4 mlrd.
2.	2016 yil	164 ta	5,0 mlrd.
3.	2017 yil	161 ta	2,4 mlrd.
4.	2018 yil	353 ta	9,8 mlrd.

5.	2019 yil	179 ta	20,5 mlrd.
6.	2020 yil	43	13,9mlrd.
7.	2021 yil	236	28,9mlrd.
8.	2022 yil	262	38,8mlrd.
9.	2023 yil	287	49,5mlrd.

Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari o'sish tendensiyasi bir tekis rivojlanmagan. Jumladan, 2015 yilda ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari soni 158 tani tashkil yetib, yirik investitsiya loyihalari hajmi 7,4 mlrd. AQSh dollarini, 2017 yilda esa 161 ta ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari asosida 2,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil yetgan. Zero, 2015 yilda 2017 yilga nisbatan 3 ta yirik loyiha ishga tushirilgan. Shuningdek, 2018 yilda jami 353 ta loyiha ishga tushirilib, 9,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil yetgan bo'lsa, 2019 yilda 179 ta yirik loyihadan 20,5 mlrd. AQSh dollarini, 2020 yilda 43 ta yirik loyihadan 13,9 mlrd. AQSh dollarini, 2021 yilda 236 ta yirik loyihadan 28,9 mlrd. AQSh dollarini, 2022 yilda 262 ta yirik loyihadan 38,8 mlrd. AQSh dollarini, 2023 yilda 287 ta yirik loyihadan 49,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil yetgan.

Sharaiti "og'ir" bo'lgan hududlarda yangi tashkil yetiladigan tadbirkorlik sub'ektlariga aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz stavkada qo'llash orqali respublika tuman va shaharlarining 4 va 5-toifalardagi investitsiya loyihalariga mablag'larni jalb etishni ko'paytirishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida o'z aksini topgan.

Mazkur taklifning amaliyotga joriy yetilishi natijasida 2022-yilda ushbu hududlarda oldingi yilga nisbatan yangidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 1,27 martaga, yangi investitsiya loyihalari soni 1,34-martga, o'zlashtirilgan investitsiyalar summasi 1,42 martaga oshishiga, soliq imtiyozi hisobiga tadbirkorlar ixtiyorida 79,7 mlrd.so'm mablag' qolishiga yerishilgan.

Takliflar

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yanada jalb qilish va ulardan samarali foydalanish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

1. **Infratuzilmani rivojlantirish:** O'zbekiston infratuzilmasini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslash muhimdir. Bu nafaqat transport va logistika sohasini, balki energetika va aloqa tizimlarini ham qamrab olishi kerak. Bu investitsiyalar mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi.

2. **Innovatsiya va texnologiyalarni rivojlantirish:** Texnologik yangilanishlar va innovatsion faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatni xalqaro texnologik rivojlanishning bir qismiga aylantirish uchun zarur. O'zbekistonning texnoparklar va innovatsion markazlar tarmog'ini kengaytirish va ularga davlat tomonidan ko'maklashish, xorijiy investorlar uchun qo'shimcha joziba yaratadi.

3. **Xorijiy hamkorliklarni kengaytirish:** Xalqaro iqtisodiy integratsiya va xorijiy strategik sherikliklarni rivojlantirish, O'zbekistonning global bozorlarga kirishi uchun

muhim. Bu sherikliklar, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning malakasini oshirish va mahsulotlar sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hozirgi holati va kelgusida ushbu yo'nalishdagi rivojlanishlar, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va jahon bozorlarida o'z o'rnini mustahkamlash uchun asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Tavsiya etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston o'zining investitsion jozibadorligini oshirishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarda muhim rol o'ynashi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

Popa, F. (2020). Some Aspects Regarding the Impact of Foreign Direct Investment in Economic Development.

Dumiter, F., & Todor, S. (2014). Modeling the Relationship Between Foreign Direct Investments and Economic Growth – Evidence from Central and Eastern European Countries.

Balasubramanyam, V., Salisu, M., & Sapsford, D. (1996). Foreign Direct Investment and Growth in EP and IS Countries.

Görg, H., & Greenaway, D. (2003). Much Ado About NoTTXIng? Do Domestic Firms Really Benefit from Foreign Direct Investment?

Mirza, H., & Giroud, A. (2004). Regionalization, foreign direct investment and poverty reduction: Lessons from Vietnam in ASEAN.

Aitken, B., Hanson, G. H., & Harrison, A. (1994). Spillovers, Foreign Investment, and Export Behavior.